

GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLAR MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY IMPERATIVLARNING O'RNI



Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna

Navoiy davlat pedagogika instituti, f.f.fd.(PhD), dotsent.

Aslonova Farangiz Akmal qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muomala madaniyati psixologik asoslari mavzusi bayon etilgan va muloqotning shaxs hayotidagi roli, vazifasi, oilada farzand tarbiyasi, oilaviy muhitda shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyoji kabi masalalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Muomala madaniyati, muloqot, oila, ilaviy munosabatlar, tarbiyaviy muhit, umuminsoniy qadriyatlar, Oilaviy munosabatlar.

Kirish. Bugungi kunga kelib O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari yaratildi. Bu negizlar - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik singari tamoyillar asosida rivojlantirildi.

Aytish lozimki, ma'naviyat, avvalo, tildan boshlanadi. Til madaniyat bilan bevosita bog'langan, til madaniyatini esa muomala madaniyatidan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Shu bois insonlararo muomala madaniyatini ma'naviy jarayonga daxldor hodisa desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qaysi inson muayyan kuch va qudratga ega bo'ladi. Muomala ham ma'naviy kuch va ma'naviy qudrat mahsuli. Bundan anglanadiki, insonning tabiatida muomala qilishga moyillik azaldan mavjud bo'lib, buni ro'yobga chiqarish insonning o'ziga bog'liq bo'lgan. Biroq ayrim hollarda inson nazarida juda kichik va elemantar bo'lib ko'ringan — shirinso'zlik, xushmuomalalik, oliyanoblik kabi fazilatlar kishilarning ma'naviy dunyosiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishini his qilmaymiz. Ayni paytda, mahmadonalik, qo'rslik, chaqimchilik. to'poslik, yolg'onchilik kabi illatlar inson borlig'ini xunuklashtiruvchi qusurlar ekanligini chuqur anglamaymiz. Zero, insondan ma'naviyat chekinganda — tubanlashadi, tafakkurini mog'or bosganda — yovuzlashadi, shaxsiy manfaatparastligi g'olib kelganda - xoinlik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda madaniyat nazariyasi va tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarda eng avvalo madaniyatining predmeti, obektining, maqsad va vazifalariga mantiqiylik va tarixiylik asosida yangicha munosabat bilan yondoshilmoqda. Xususan, «Falsafa fani madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etar ekan, o'z mushohada me'yorida madaniyatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog'liq holda rivojlana borishi hamda ayni ana shu taraqqiyot jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyatiga xos o'zaro aloqadorlik mavjudligining dialektik qonunlarini tahlil etadi»[1].

Muomala jarayonini ilmiy tushunishga doir masalalar ko'proq madaniyat tarixiga doir manbalarda o'z aksini topgan. Ma'lumki, shaxslararo muomala o'z-o'zicha yuzaga kelmagan, insonlar hali mustaqil shaxs sifatida bir-birlaridan farqlanmas edi. Qadimgi davrda inson e'tibori tabiatga qaratilgan bo'lib. ibtidoiy san'atning bosh qahramoni inson emas, balki hayvonlar hisoblangan.

«Muomala» tushunchasini shakllanish tarixi qadimgi Misr, qadimgi Hindiston va asosan antik davrlarga borib taqaladi. Antik davrlarda shaxslararo aloqalar um umfalsafiy tizim sifatida mutafakkirlarning qarashlari bilan qo'shib ketgan edi.

Shaxsning holati va xususiyati shaxslararo munosabatlar jarayonidagi «Men-Sen», «Men-Biz», «Biz-Ular» formulasi asosida yuzaga keladi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxs — ijtimoiy munosabatlar maxsuli deyilishining eng asosiy sababi — uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Shaxs ijtimoyillashuvi muammosini tahlil etish shuni ko'rsatadiki bu jarayonning asosiy omillaridan biri muloqotdir. Muloqot asosida shaxs eng muhim ehtiyojlarini amalga oshiribga qolmay balki, tajriba va ma'lumotlarga ham ega bo'ladi. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'ri, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan jarayon insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolishdan iborat. Shu bilan bir qatorda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifat va madaniyat sari yetaklash ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu masalalarning yechimini, eng avvalo, jamiyatning muqaddas makoni hisoblangan – oiladan izlash kerak.

Aynan, oila instituti - axloqiy imperativlarning saqlanib qolishini ta'minlashi lozim.

Imperativ (lot. imperativus — buyu-ruvchi) — talab, buyruq, qonun. Nemis faylasufi Kant «Amaliy aklni tanqid» (1788) asarida Imperativni etika tushunchasiga kiritgan. Unga ko'ra, shaxsiy prinsipga qaramaqarshi o'laroq, Imperativ hammaga majburiy bo'lgan rasmiy axloq-odob talabidir. Imperativ shartli va qat'iy imperativga bo'linadi. Shartli (taxminiy) imperativ ma'lum shart - sharoitlardagina amal qiladi, qat'iy imperativ — muqarrarlik (bo'lishi keraklik)ni ifoda etadi. U yurish - turishda rioya etilishi kerak bo'lgan shakl va qoidani belgilab beradi.

Shuning uchun ham tarixga nazar solsak, komil inson tarbiyasi avvalambor oilada boshlanganini ko'rshimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, dalil va isbotni talab qilmaydigan haqiqatdir. Oila haqida gap ketar ekan, bu muqaddas makonni yaratuvchi ota-ona haqida gapirib o'tmaslikning iloji yo'q.

Oila har inson uchun muqaddas maskan sanaladi. Uning muqaddasligi bu maskanda shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan omil va sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, oilaga xos bo'lgan psixologik iqlimni boshqa biror bir ijtimoiy muhitda topib bo'lmashligi bilan belgilanadi.

Oila — kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Zero, "oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi [3].

Chunki oilada ota-ona farzand uchun ham murabbiy, ham komil inson tarbiyachisidir. Jamiyatdagi har bir inson uchun insoniylik fazilatlarini (halollik, poklik, imon-e'tiqod, olijanoblik va hokazolar) avallo oilada mujassamlashadi. Shu bois oilaning jamiyatdagi o'ri, tarbiyaviy, axloqiy ahamiyati va qadr-qimmatini anglamasdan turib, komil inson tarbiyasi haqida gapirish o'rinsizdir.

Sababi, oilada farzand tarbiyasida ota-bobolarimizning milliy an'ana va urf-odatlarini nuqtai nazaridan yondashmasak, biz oldimizga qo'ygan maqsadga erishishimiz mushkul kechadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlanganidek: «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi»[4].

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar sanaladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi. Oiladagi tarbiyaviy munosabatlar kelgusida o'rnatiladigan munosabatlarga mustahkam zamin yaratadi. «Oilada yuz beradigan turli holatlar orqali bola o'zida boshqalarga ishonish, do'st orttirish va hurmat qilish kabi fazilatlarini shakllantiradi. Bunday birinchi saboqlar bolaning kelgusida munosabatlar o'rnatishiga poydevor yaratadi [5].

Shaxsning ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Oila – ijtimoiy birlashma sifatida muayyan vazifalarni hal qiladi. Bugungi kunda yosh avlodni kamol toptirish yo'lida zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan vazifalarquyidagilardan iboratdir [6].

Asosiy funksiyalari:

- Iqtisodiy
- Tarbiyaviy
- Reproktiv (farzandlarni dunyoga keltirish)
- Regulyativ (boshqarish)
- Rekreativ (oilada a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanişini ta'minlash)
- Kommunikativ (oilada a'zolarining o'zaro muloqot va munosabatlari)
- Relaksatsiya (jismoniy va ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf etish)
- Feliotsitologik (shaxsiy baxtga erishish uchun intilish)

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati murakkab tuzilmaga, tuzilmaning o'zi esa muhim tarkibiy qismlarga egaligida aks etadi. Mavjud qismlar oilaning pedagogik, ijtimoiy-psixologik, madaniy va qadriyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gigiyenik hamda demografik xarakterga ega imkoniyatini yoritadi. Ularning barchasi oilada farzandni har tomonlama sog'lom qilib voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlar sanaladi. Farzandlar tarbiyasida muvaffaqiyatga erisha olish uchun oila ma'lum tarbiya mexanizmlariga ega bo'lishi zarur.

Xar bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan boskichlarda quyidagilarning sodir bulishi kuzatiladi:

- tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi. ularning o'ri, ahamiyati va o'zaro munosabati o'zgarmay qoladi;
- tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga karab yunaladi va borgan sari ko'prok, yosh guruhlarini qamrab oladi;
- ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy kislmlari ajraladi: ta'lim olish, keyinchalik esa ma'lumotli bo'lish;
- korreksion tarbiya paydo bo'ladi;
- totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g'ayri- ijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi;
- tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari uzgaradi;
- tarbiyaning axamiyati ortib, u jamiyat va davlatning alohida funksiyasi bulib qaraladi hamda ijtimoiy institutga aylanadi [7].

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega bo'lib, uning eng umumiy vazifalari kuyidagilardir:

- jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyokarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish;
- jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- ijtimoiy hayot barqarorligini madaniyatni avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash;
- o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash;
- jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uygunlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yunalishlarga bog'lik asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya tamoyillari tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chikiladi va tarbiyaning shakl metod va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili. Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlarida o'z ifodasini topgan bulib. XVIII asrdan boshlab u turli davlat pedagoglarining tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu g'oya XVIII asrda fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi L.Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida ham o'z aksini topgan [8].

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlarini shakllanishiga, g'urur hissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlar tashuvchisi insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yanada kengrok ma'noda, insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi aloqalarning yaxshilanishiga hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda insonlarning birlashishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov S. Madaniyat tushunchasini shakllantirishning dolzarb maallari. Qarshi. «Nasaf» nasliriyoti. 2003. 9-bet.
2. B. Husanov, V. G'ulomov. Muomala madaniyati. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston Milliy universiteti. - T.: «Ta'lim nashriyoti», «Iqtisod-moliya», 2009. -12 b.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Darslik. M.X.Toxtaxodjayeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahr.ostida. - T.: "Moliya-iqtisod", 2007. - 196-bet.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. –52-53-b.
5. The Family's Role in a Child's Development // <http://mom.me/kids/5258-family-role-childrens-development>.
6. Oila psixologiyasi / Prof. G'.B.Shoumarov tahriri ostida. G'.B.Shoumarov va b. - T.: "Sharq", 2008. – 47-62-b.

7. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2009.-100 b
8. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2009.-101 b